

## ANVAR OBIDJON ASARLARINING NASRIY POETIKASI

**Muydinov Muhammadzoir Zafarjon o‘g‘li**

O‘ZMU O‘zbek filologiyasi fakulteti  
adabiyotshunoslik yo‘nalishi 2-kurs magistranti.

***Annotatsiya:** Poetika so‘zi yunoncha bo‘lib, san‘at, badiiyat ma‘nosini anglaladi. Badiiy asar poetikasi deganda, biz avvalo, uning san‘atga xos xususiyatlari, badiiy olamini tushunamiz. Anvar Obidjon asarlarida poetikani qo‘llanishi.*

***Kalit so‘zi:** ohang, tahlil, san‘atkor, persanaj, hikoya qilish, sujet.*

Badiiy asarning tuzilishi, sujet va kompozitsiyasi, til xususiyatlari, hikoya qilish yo‘sini, ifoda tarzi, tasvir usullari va vositalari, ohangi bularning barchasi asar poetikasini tashkil etadi. Ijodkorning san‘atkorligi, o‘ziga xosligi birinchi galda uning poetik ixtirosi, mahorati bilan belgilanadi. Qolaversa, har bir chinakam san‘at asari badiiy jilolari bilan ajralib turadi, biri ikkinchisini aslo takrorlamaydi. Bu jihatdan Anvar Obidjon ijodi, asarlari g‘oyat ibratlidir.

Salkam o‘ttiz yildirki, u gazeta, jurnal, televidenie tahririyatida faoliyat ko‘rsatdi. Anvar Obidjon hozirgacha o‘ttizga yaqin kitob nashr ettirdi. “Bahromning hikoyalari” (1980), “Ey, Yorug‘ dunyo” (1983), “Masxaraboz bola” (1986), “Meshpolvonning janglari” (1994), “Oltiariq hangomalari” (1999), “Alisher ila Husayn yoki uch dono va o‘g‘ri” (1996), “Bezgakshamol” (1985), “Ketmagil” (1985), “Juda qiziq voqea” (1987), “Bezgakshamol – 2” (2003), “Tanlangan she‘rlar” (2006) kabi asarlari kitobxonlarga ma‘lum. Shunday ijodkorlar bo‘ladiki, yozgan, nashr etilgan asarlarini qayta-qayta ishlayveradi. Natijada, bir asar, to‘plam turli nomlarda nashr ettiriladi. Anvar Obidjon ham yozganlarini hamisha mukammallashtirib, yangiliklar bilan

boyitib borishga o'ch san'atkorlardan. Uning "Akang qarag'ay Gulmat"i "Kambag'albop Gulmat"ga aylanib qolsa, ajablanmaslik kerak.

Asar yaxshidir, yomondir yozuvchi ijodining samarasi, farzandi, misoli. Anvar Obidjonning "Yaltiroq tugma", "Alamazon va uning piyodalari" haqida ko'p yaxshi gaplarni aytish, ulardagi biografik, sarguzasht voqealarni ta'riflash mumkin. Qolaversa, bir tanqidchiga ma'qul bo'lgan asar ikkinchisiga yoqmas. Bu asarlar to'g'risida har biriga alohida-alohida tadqiqot ishi qilsa bo'ladi. Chunki bu asalarida boshqa asarlarda uchramaydigan hayoliy va fantastic ruh ajralib turadi. Bolalarning ong-tafakkurini yuksaltiradigan ichki olamini boyitadigan sarguzashtlar bilan jonlantirgan.

Adibning "Dahshatli Meshpolvon", "Oltin yurakli avtobola" asarlari yoki "Alamazon va uning piyodalari", "Yaltirok tugma" dilogik kissalari shu jixatdan uzbek bolalar adabiyotida yangi vokelik hisoblanadi. Bu asarlardagi obrazlar xam shu kunning kaxramonlari. Va ular oddiy bola emas: dahshatli Meshpolvon, g'aroyib, olovkalb Alamazon yoki temirtan avtoboladir. Ular tinib-tinchimasgina emas, ozodlik va haqiqat uchun, o'z erki va xak-xukuki uchun kurashchuvchan, jasur hamda erkparvar bolalar. Adib shu sababli "Alamazon" turkumidagi qissalarini yosh avlodga, aniqrog'i "ona yurtning jasur farzand"lariga bag'ishlagan.

Asar qahramonlari qo'shiq aytadilar, hasbi hol so'zlaydilar, maktub bitadilar, tavsifu ta'rif beradilar. "Juda qiziq voqea"da go'zal ohang, g'aroyib mutanosiblik, turfa ranglar jilosi, ziddiyatlar kurashi, hayot-mamot jangi tasvirlangan. Bolalar yozuvchilari hamisha, hamma erda bitta muhim qonuniyatga amal qilganlar: yashamoq – ulug' ne'mat. Yashash baxti hammaga ham nasib etavermaydi. Yashayotgan har bir jonzot Yaratganning ro'yxatidan o'tgan. Odamlar jonzotni oyoq osti qilishga, qirishga haqsizdirlar. Anvar Obidjon atayin ko'kshira, chivin, burga, pashsha, kapalak, shilliqurt, suvarak, chumoli singari hasharotlarni tasvirleydi. Ko'kshira, masalan, nihoyatda uvoq, sustharakat, yuztasi, mingtasi bittagina bargga jo bo'ladigan hasharot. U – kushanda. Ammo shoir bu mayda maxluqni ochiq haqorat qilmaydi. maqtamaydi ham.

*Yopishqoqman,  
O‘z nomim –  
O‘zim bilan shiraman.  
Ekinlarga g‘animman,  
O‘taketgan xiraman...  
.....  
Tuproq kuylar hayotni,  
Men kuylayman  
O‘limni!*

Anvar Obidjon o‘z qahramonlarini ko‘rsatadi, tasvirlaydi, zinhor ularga baho bermaydi. Yosh kitobxonni o‘ylashga, baholashga o‘rgatish bolalar adabiyotining vazifasi.

Anvar Obidjon bolalar uchun nimaiki yozmasin, go‘zallikni, kuyni, shakl va mundarija mutanosibligini nazarda tutadi. “Bulbulning cho‘pchaklari” turkumida hamma narsa go‘zal, mukammal. Ohangga mos so‘zlarni tanlaydi, qahramonlar fazilatini topib-topib, o‘rniga qo‘yib-qo‘yib tasvirlaydi:

*Musichalar yuvvoshu Chumolilar tirishqoq,  
Suvaraklar beboshu Kuchukchalar urishqoq.  
Xo‘tiklar zo‘r yallachi, Qo‘y, Sigirlar dalachi,  
Sho‘x Qo‘chqorlar kallachi, Takalar ham suzishqoq.*

Tahlil va talqin tushunchalari, ularning tushunish jarayonidagi nisbati haqida. Badiiy asami tushunish jarayonidagi obyektiv va subyektiv jihatlar haqida. Kontekstual va immanent tahlil. Tahlil metodlari..

Adabiyotshunoslikda tahlil va talqin tushunchalari juda keng qo‘llanilib, ular badiiy asarni tushunish jarayonining bir-biriga bog‘liq jihatlaridir. Badiiy asarni tushunish, uning mazmun mohiyatini anglash jarayonida tahlil va talqin amallari har

vaqt hozirdir. Tahlil atamasi odatda ilmda "analiz" deb yuritiladigan istilohning sinonimi sifatida tushuniladi. Analiz esa, ma'lumki, butunni anglash uchun uni qismlarga ajratishni, qismning butun tarkibidagi mohiyatini, uning boshqa qismlar bilan aloqasi va butunlikning yuzaga chiqishidagi ornini o'rganishni ko'zda tutadi. Ayrimlar badiiy asami tirik organizmga qiyos etishadi-da, "uni qismlarga ajratish jonsiz tanaga aylantirishdan boshqa narsa emas" degan qarashga tayanib, tahlilga qarshi chiqadilar. Biroq bu xil qarash asossizdir. Zero, adabiyotshunoslikdagi tahlil ham o'qish, faqat bunda badiiy asarni tadqiqotchi sifatida o'qish tushuniladi. Bu xil o'qish jarayonida tadqiqotchi badiiy asarni qismlarga ajratarkan, uning badiiyat hodisasi sifatidagi mavjudligini, undagi o'quvchi ongi va ruhiyatiga ta'sir qilayotgan, uning u yoki bu tarzda tushunilishiga asos bolayotgan omillarni o'rganadi.

Talqin atamasini biz "interpretatsiya" istilohining sinonimi sifatida tushunamiz. Talqin badiiy asarni sharhlash, uning mazmun mohiyatini, undagi badiiy konsepsiyani idrok etish demakdir. Keng ma'noda "talqin" so'zi o'zga tomonidan aytilgan gap yoxud yozilgan asar (ilmiy, falsafiy, diniy, badiiy va h. ) mazmunini anglash, uni ma'lum yaxlitlikda tushunish va tushuntirish (adabiyotshunosning maqsadi tushunishning o'zigina emas, tushuntirish hamdir) ma'nolarini anglatadi. Shu ma'noda qaralsa, mumtoz adabiyotshunosligimizda, umuman, o'tmish ilmida "talqin" so'zining ma'nosi qisman "sharh", "tafsir" atamalari bilan ham berilgan. Yana ham aniqroq aytsak, talqin badiiy asardagi "obrazlar tili"ni " mantiq tiliga o'girmoq. obrazlar vositasida ifodalangan mazmunni tushunish va tushuntirmoqdir.

Yuqorida aytdikki, badiiy asarni tushunish jarayonida tahlil va talqin amallari har vaqt hozir, ular tushunish jarayonining ikki qirrasidir. Aytaylik, "o'quvchi badiiy asarni tushundi" degani, mohiyatan, "o'quvchi asarni o'zicha talqin qildi" deganidir. Ayni paytda, uning asarni tushunishida tahlil unsurlari ham mavjud, zero, oddiy o'quvchi ham tushunish jarayonida asar qismlarini (mas., alohida epizodlarni, personajlarni, ularning turli holatlardagi xatti-harakati, gap-so'zlarini va h. ), ularning o'zaro mazmuniy aloqalarini tasavvur qiladi. Ilgari ham aytganimizdek, konkret badiiy asar turli o'quvchilar tomonidan turlicha tushunilishi mumkin. Biroq shunisi ham

aniqki, oquvchilar ongidagi minglab talqinlarni umumlashtiradigan mushtarak nuqtalar ham mavjud. Demak, konkret asar talqinlari nechog'li turfa bo'lmasin, ularning chegaralarini belgilab beruvchi muayyan asos, deylik, yadro (javhar) mavjudki, barcha talqinlar shu yadro atrofida hosil bo'ladi. Bu yadro esa badiiy asarning ozi, badiiyat hodisasini o'zida moddiylashtirgan badiiy matndir. Ayon bo'ldiki, badiiy asarni tushunish jarayoni obyektiv va subyektiv ibtidolardan tarkib topar ekan: agar bu o'rinda talqin qilayotgan shaxsni subyektiv ibtido deb olsak, badiiy matn obyektiv ibtidodir.

Bundan shunday xulosa kelib chiqadiki, agar talqin qiluvchi shaxs badiiy matnni yetarli darajada bilmasa, asar qismlarini, ularning o'zaro aloqalarini yetarli tasavvur qilolmasa, uning talqini subyektivlik kasb etadi. Boshqa tomondan, badiiy adabiyotning obrazlar orqali fikrlashi, obrazning esa assotsiativ tafakkur mahsuli ekanligini e'tiborga olsak, talqinning subyektsiz mavjud emasligi ayon haqiqatdir. Chunki ijodkorning assotsiativ fikrlashi mahsuli o'laroq yaratilgan va asarda aksini topgan obrazning mazmun qirralari faqat subyekt ongidagina (ya'ni, uning ham assotsiativ fikrlashi asosida) qayta tiklanishi mumkin bo'ladi. Aytilganlar tushunish jarayonida tahlil va talqin har vaqt hozirligining yorqin dalilidir. Oddiy oquvchidan farq qilaroq, adabiyotshunos badiiy asarni talqin qilarkan, tahlilga tayanadi, uning talqini tahlil asosida yuzaga kelgani uchun ham ilmiy sanaladi. Shu ma'noda tahlil badiiy asarni tadqiqotchi sifatida o'qish va uqish demakdir.

Yuqoridagilardan ma'lum bo'ladiki, badiiy asar tahlilining maqsadi - asarni tushunish (asarni baholash ikkilamchi maqsad). Xo'sh, "asarni tushunish" deganda nima nazarda tutiladi? Bu masalada ham adabiyotshunoslikda turlichalik mavjud: ayrimlar asarga muallif tomonidan yuklangan mazmuni tushunishni nazarda tutsalar, boshqalari asarda tasvirlangan narsalardan (obyektiv ibtidodan) kelib chiqadigan mazmuni tushunishni nazarda tutadilar. Bu qarashlarning birinchisiga kora tushunish jarayonida tahlil yetakchilik qilsa, ikkinchisida talqinning mavqei ustunroq ekanligi tayin; birinchisi badiiy asarni uning ichki va tashqi aloqalarini birlikda olib o'rganishni (kontekstul tahlil) taqozo etsa, ikkinchisi badiiy asarga alohida mavjudlik sifatida

qarab, uning ichki aloqalarini organish (immanent tahlil) bilan cheklanadi. Biroq mazkur qarashlarning ikkisini ham mutlaqlashtirib bo'lmaydi, bu o'rinda "oraliq" mavqening egallangani, har ikki yo'sindagi tahlilning ham mavjudligini, ularning birbiridan ko'zlagan maqsadi va ahamiyati jihatidan farqli ekanligini tan olingani tog'riroq bo'ladi.

Tushunish jarayonining nazariy muammolarini o'rganuvchi soha hermenevtikaning asosiy qoidasi shuki: qismni butun, butunni qism orqali tushunish darkor. Bu qoida yuqoridagi tahlil yo'sinlarining ikkisiga ham birdek aloqador. Faqat bu o'rinda immanent tahlil "kontekst" tushunchasini asar doirasi bilan cheklab olsa, kontekstual tahlilda "kontekst" tushunchasining ko'lami kengayib boradi (konkret asar "yozuvchi biografiyasi", "muallif yashagan davr shart-sharoitlari", "muallifning ijodiy merosi", "asar yaratilgan davr adabiyoti", "milliy adabiy an'analar" kabi kontekstlar doirasiga kiradi). Kontekstual tahlil asarga muallif tomonidan yuklangan mazmunni tushunishga yo'l ochsa, immanent tahlil asarda tasvirlangan narsalarga (va, albatta, undagi muallif obraziga) tayangan holda o'quvchiga o'z mazmunini shakllantirish imkonini beradi. Mutaxassisdan farqli o'laroq, oddiy o'quvchilarning asarni tushunishida immanent tahlil unsurlari yetakchilik qiladi (shu bois ham oquvchilar ongida konkret asarning turfa talqinlari mavjud). Zero, aksariyat o'quvchilar uchun konkret asarning qay maqsadda, qanday omillar ta'sirida yozilgani ahamiyatsiz ular asarning o'ziningina taniydilar, uning o'zidagina zavq oladilar. Aksincha, adabiyotshunos uchun bularning bari muhim, chunki asarni tarixiylik tamoyiliga tayanib, biografik yoxud sotsiologik metodlar (kontekstual tahlil) asosida tekshirib chiqarilgan xulosalar adabiy-nazariy tafakkur rivojida hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. Ular, tabiiyki, badiiy adabiyot rivoji hamda badiiy did tarbiyasiga ham bilvosita ta'sir qiladilar, bu xil xulosalar bilan badiiy didga bevosita ta'sir qilishga urinishning esa adabiyotga ziyon keltirishi ehtimoli koproq. Buni qanday tushunmoq kerak? Gap shundaki, o'zining ijtimoiy hayoti davomida badiiy asar turli talqinlarga duch keladi, zero, har bir konkret davr uning mazmun qatlamlaridan birini aktuallashtiradi. Ikkinchi tomondan, kitobxonlardagi ijodiy o'qish imkoniyatlari turlicha, shunday ekan,

kitobxonlar ichida chinakam badiiy asarning hali hech kim e'tibor qilmagan mazmun qirralarini ochishga, uning hali hech kim ilg'amagan voqelik bilan aloqalarini korishga qobillari har vaqt bo'ladi. Agar biografik yoki boshqa xil metodlarga tayanib amalga oshirilgan talqinni yagona, eng togrisi deb bilib, shu talqinni barcha oquvchilarga singdirmoqchi bo'lsak, bu bilan ijodiy oqish imkoniyatlarini cheklagan, badiiy didga jiddiy zarar yetkazgan bolib chiqamiz. Masalan, aksariyat kishilarda sho'ro davrida yozilgan asarlarning o'sha davrda amalga oshirilgan talqinlari orinlashib qolgan. Bu esa davr adabiyoti haqida muayyan tasavvur, munosabatga asos bo'ladiki, yuqoridagi mulohazalardan kelib chiqilsa, ularni ilmiy jihatdan togru deb bo'lmaydi. Demak, talqinlar yangilanishi zarur. Zero, adabiyotshunosning vazifasi ham mavjud talqinlarni bilish emas, balki ularga tayangan (ularga ba'zan qo'shib, ba'zan inkor etib) holda asarni bugungi kun nuqtayi nazaridan talqin qilish va baholashdir. Xulosa qilib aytsak, badiiy asarni alohida butunlik sifatida ham, kontekst doirasida ham tushunish (tahlil va talqin qilish) mumkin, faqat har ikkisining ham o'z o'rni, vazifasi va maqsadi tayinli ekanligini unutmaslik darkor.

Badiiy asarni kontekstual tahlil qilishda unga turli jihatlardan yondashish mumkinki, shu asosda bir qator tahlil metodlari haqida gapirish mumkin boladi.

"Alamazon va uning piyodalari" kissasining bosh qahramoni Alamazon U toshtakaliklar shevasida gurkirab yonayotgan gulxanni anglatadi. Alamazon yoshligidanok kitobga mexr kuyib, jahon bolalar adabiyotidagi tengdoshlari CHippolino, Buratino, Tom Soyer, Gek Finni, o'zbek xalk dostonlaridan Ravshanbek, Alpomish kabi qahramonlarni savodi chikkandan buyon taniydi, shuningdek, o'zbek va jahon mumtoz adabiyot durdonalaridan baxramandligi ayonlashadi. Alamazon bu kitoblarni shunchaki o'kish bilan cheklanmay, ulardan ta'sirlanib, do'sti Eshmat bilan xazina kidirib topish, topganda uni nimalarga sarflash xakida reja tuzadi. Eng avvalo, yaylov etagida o'n ming kishilik stadion, ko'p qavatli uylar, marmar devorli kattakon choyxona kurish, kuchalarga asfalt yotkizib, ko'priknini yangilash, umuman, qishloqlarida zamonaviy inshootlar barpo etishni o'ylaydi, xatto butun umri

boshlangich sinflarga dars berish bilan o'tgan Axmadali otaga atab terak buyi xaykal o'rnatmokchi bo'ladi.

Yozuvchi bu asarni 1976-78 yillarda yozganiga e'tibor berilsa, uning dolzarbligi va kelajakni yorqin tasvir eta oydinlashadi Ayniqsa, bolalar olish mahorati yanada kitobxonligida hikmat ko'pligi Alamazonning uyg'oq tafakkuri bilan ko'rsatib berilgan. Rost, qissadagi voqealar ertaklarga xos sayohat, tush ko'rish, tilsimlanish motivlari yordamida tasvirlanadi. Goh ilmiy-fantastik, goh realistik buyoklarda badiiy talqin etilgan hikoyalar zaminida hayot haqiqati yotadi, albatta. Alamazon tog'asi professor Og'abek Turkoniy olib kelgan antiqa dori - uni tatib ko'rganda kishi xuddi ertaklardagidek murod maqsadga etishiga qiziqib qoladi: buni o'zi va o'rtog'i Eshmatda sinab ko'radi. U Jek Londonning "Uch qalb" kitobidagi yozganiga qahramonlar, ularning g'ordan topgan bexisob xazinalari haqida xayol surib yurganidan, o'zlarining Jandago'rida ham "Xazinaga ishonganidan, dori tasirida uxlagach, tushida Zimistonsaroy orqali Yulduzistonga kelib qoladi. U erda Humo Xartum, Qo'tirlar sulolasi, Isqirtlar mamlakati va ular boshqargan tuzum hamda odamlari bilan tanishishga muyassar bo'ladi. Tirtiq, Shilpik, Qo'tir Beshinchi, Malika Maston, Idris Ibrohim, Barri Baraka, Fisqiddin Makru Maraz, Isom Ittu Iskabtovar, Hoshim Heziddin, Xum kabi ismlari yo'q ularning tashqi ko'rinishi, kasb-kori va fe'l-atvorini bildirib turuvchi kishilar bilan tanishadi. Bu yurtda Qo'tirlar sulolasi tugab, Isqirt Birinchining taxtga o'tirish marosimi jarchi tilidan shunday bayon kilinadi:

- *"Xe-xe, xe-e-e-ey! Eslilaru nodonlar, xafalaru shodonlar, go'ng Xidlagan cho'ponlar, gul hidlagan juvonlar, eshitmadim demanglaro-o-ov! Isqirt Birinchi padari oliylari mamlakat aholisiga katta g'amxo'rlik kursatib, bugundan e'tiboran ularni yuvinish va cho'milishdek mushkulotdan butunlay ozod qiladilar.. qasddan yuvinayotgan yoki cho'milayotgan paytda qo'lga tushirilgan baliqpadarlar esa xavfli g'alayonchi sifatida achigan zindonga tashlanadilar."*



Anvar Obidjon – yangi o‘zbek adabiyotida o‘z o‘rni, uslubi, qarashlari, qahramonlari, o‘quvchilari mavjud betakror san’atkor. U o‘zligini izlay-izlay yetuk shoir, so‘z san’atkori bo‘ldi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:**

1. A.Obidjon. Ajinasi bor yo‘llar. – T,: “Sharq yulduzi” jurnali, 2014 yil
2. A.Obidjon. Alamazon va Gulmat. T.: Cho‘lpon", 1998-yil
3. A.Obidjon. Juda qiziq voqea. T.: "Cho‘lpon", 1997-yil
4. A.Obidjon. Ketmagil. T.: Adabiyot va san’at nashriyoti, 1985- yil
5. Said Ahmad. Farg‘onada bittagina "Xalq so‘zi". 2000 yili 19 aprel
6. Rahmon Qo‘chqor. Ajabtovur idrok usuli. "Fidokor", 2000-yil 20 avgust.